



THE ROLE OF FASHION IN THE WORLDVIEW AND SOCIAL LIFE OF YOUTH

Rakhimova Kamola Gayratovna

rakhimovakamola96@gmail.com

Boltayeva Iqbol Bakhrom qizi

iqboloyboltayeva200@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17152052>

ARTICLE INFO

Received: 10th September 2025

Accepted: 17th September 2025

Online: 18th September 2025

KEYWORDS

Social, networks, influencers, influence, fashion, (fast fashion) modern youth, TikTok, YouTube.

ABSTRACT

This article discusses the role and importance of fashion in the lives of modern youth. Fashion is not only a means of appearance and beauty for young people, but also a way to express their personality, thoughts and views. Through fashion, young people feel a sense of belonging to social groups and consider themselves to belong to such groups. The article also discusses various subcultures that are popular among young people, such as hip-hop or K-pop styles. Today, social networks; platforms such as Instagram, TikTok, YouTube play an important role in stimulating young people's interest in fashion and quickly adopting new trends.

РОЛЬ МОДЫ В МИРОВОЗЗРЕНИИ И ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ МОЛОДЕЖИ

Рахимова Камола Гайратовна. rakhimovakamola96@gmail.com

Болтаева Икбол Бахром кизи. iqboloyboltayeva200@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17152052>

ARTICLE INFO

Received: 10th September 2025

Accepted: 17th September 2025

Online: 18th September 2025

KEYWORDS

Социальные сети, инфлюенсеры, влияние, мода, (быстрая мода), современная молодёжь, TikTok, YouTube.

ABSTRACT

В данной статье рассматривается роль и значение моды в жизни современной молодёжи. Мода — это не только способ подчеркнуть свою внешность и красоту, но и способ выразить свою индивидуальность, мысли и взгляды. Благодаря моде молодые люди ощущают свою принадлежность к социальным группам и считают себя их частью. В статье также рассматриваются различные субкультуры, популярные среди молодёжи, такие как хип-хоп или К-поп. Сегодня социальные сети и платформы, такие как Instagram, TikTok и YouTube, играют важную роль в стимулировании интереса молодёжи к моде и быстром усвоении новых тенденций.



MODANING YOSHLAR DUNYOQARASHI VA IJTIMOY HAYOTIDAGI O'RNI

Raximova Kamola G'ayratovna

raximovakamola96@gmail.com

Boltayeva Iqbol Baxrom qizi

iqboloyboltayeva200@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17152052>

ARTICLE INFO

Received: 10th September 2025

Accepted: 17th September 2025

Online: 18th September 2025

KEYWORDS

Ijtimoiy, tarmoqlar, influencerlar, ta'siri, moda, (fast fashion) zamonaviy yoshlar, TikTok, YouTube.

ABSTRACT

Ushbu maqolada zamonaviy yoshlar hayotida modaning o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi. Moda yoshlar uchun nafaqat tashqi ko'rinish va go'zallik vositasi, balki o'z shaxsiyatini, fikrlarini va qarashlarini ifodalash usuli hisoblanadi. Moda orqali yoshlar ijtimoiy guruhlarga mansub bo'lishni his qiladi va o'zlarini shunday guruhlarga tegishli deb bilishadi. Maqolada yoshlar orasida mashhur bo'lgan turli subkulturalar, masalan, hip-hop yoki K-pop uslublari haqida ham so'z yuritiladi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar; Instagram, TikTok, YouTube kabi platformalar yoshlarning modaga bo'lgan qiziqishini va yangi trendlarni tezda o'zlashtirishida muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy davrda moda inson hayotining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, ayniqsa yoshlar orasida uning roli sezilarli darajada kuchaygan. Kiyim-kechak, soch turmagi, aksessuarlar va tashqi ko'rinish orqali yoshlar o'z shaxsiyati, qarashlari, madaniyati va guruhga mansubligini ifodalaydilar. Moda nafaqat estetik zavq, balki yoshlarning psixologik, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan kuchli vosita hisoblanadi. Modaning yoshlar hayotidagi psixologik o'rni bor, moda birinchi navbatda shaxsiyat ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Psixolog Erik Eriksonning identitet (shaxsiyat) nazariyasiga ko'ra, o'smirlik davrida shaxs o'z "men"ini izlaydi. Moda esa bu izlanishda vosita bo'lib xizmat qiladi. AQShdagi Pew Research Center tomonidan 2022-yilda o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, 18-24 yoshli yoshlarning 76% ini libos orqali o'z shaxsini ifodalashga intilishi aniqlangan. O'tkazilgan so'rovnoma qatnashganlardan biri shunday deydi: "Moda meni kimligimni ko'rsatadi. Men kiyimim orqali gapirmasam ham, o'zim haqimda ko'p narsa ayta olaman."

Shuni ham takidlash lozimki, moda ijtimoiy guruhlarga mansublikni ham ifodalaydi. Yoshlar o'rtasida kiyinish uslubi orqali ijtimoiy guruhga tegishlilik tuyg'usi oshadi. Har bir subkultura (ijtimoiy guruh ma'daniyati) – masalan, hip-hop, anime, rock, K-pop - o'ziga xos kiyinish uslublari ega bo'lib, yoshlar bu uslublarda kiyinish va shu guruhlarga taqlid qilishadi. Misol uchun 2023-yilda O'zbekiston yoshlarining 15-22 yosh oralig'ida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovda (O'zbekiston Yoshlar agentligi) respondentlarning 62% ini

kiyinish uslublarini ijtimoiy tarmoqlardagi blogerlar (influencerlar)ga taqlid qilib tanlashlarini aniqlangan.



1-rasm. Hip-hop uslubi

Bugungi kunda moda sanoatida TikTok, Instagram, Pinterest kabi platformalar asosiy rol o'ynaydi. Yoshlar yangi uslublar, brendlar, trendlardan ijtimoiy tarmoqlar orqali tezda xabardor bo'ladi va ularga ergashadilar. Statistika bo'yicha 2024 yildagi yoshlar orasida modaga ijtimoiy tarmoqlar ta'sirini jadval jaklida keltirilgan.

1-jadval

No	Platforma	Ta'sir ko'rsatayotgan yoshlar ulushi (%)
1	Instagram	68%
2	TikTok	73%
3	YouTube	52%
4	Telegram	34%
5	Pinterest	21%

Ushbu raqamlar yoshlarning modani o'zlashtirishda raqamli dunyoning bevosita rolini ko'rsatadi.

Moda nafaqat go'zallik yoki uslub, balki siyosiy va ijtimoiy pozitsiyani bildiruvchi vosita hamdir. Ayrim yoshlar ekologik toza brendlarni tanlab, atrof-muhitga befarq emasligini namoyon etsa, boshqalar gender neytral kiyimlar orqali jamiyatdagi tenglik g'oyasini ilgari suradilar. Moda sanoati, shuningdek, iste'molchilarning moliyaviy tanlovlariga ham ta'sir qilmoqda. Brendlar o'rtasidagi raqobat va "fast fashion" (tezkor moda) kabi tushunchalar yoshlar orasida tez o'tuvchi trendlarni kuzatishga sabab bo'lmoqda. Ammo barqaror modani qo'llab-quvvatlovchilar soni ortib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga qaraganda Fashion Revolution tashkiloti tadqiqoti, yoshlarning



54% tez modani yoqlagan bo'lsa, 38% ekologik toza ishlab chiqarilgan kiyimlarni afzal ko'rishini bildirgan (2023-yil).

Xulosa: Zamonaviy yoshlar hayotida moda nafaqat tashqi ko'rinish va estetikaga xizmat qiluvchi omil, balki u shaxsiyatni ifodalash, ijtimoiy guruhga mansub bo'lish va psixologik o'sishda muhim vosita hisoblanadi. Moda yoshlarning o'zligini qidirishidagi yordamchi element sifatida, shuningdek, turli subkulturalar va ijtimoiy tarmoqlardagi influencerlar orqali ta'sirchanlikka ega. Raqamli platformalar modani tez va keng tarqalishiga xizmat qilib, yoshlarning moda va ijtimoiy pozitsiyalari shakllanishida asosiy o'rin tutadi. Shuningdek, moda orqali yoshlar ekologiya va ijtimoiy tenglik kabi muhim mavzularni ham ifodalaydi. Biroq, "fast fashion" tendensiyasi tez o'tuvchi trendlarni kuchaytirsa-da, barqaror moda tarafdorlari ortib borayotgani ijtimoiy mas'uliyat va ekologik ongning oshayotganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi: yoshlar va zamonaviy taraqqiyot" Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot (2023). (Yoshlar siyosati va ijtimoiy rivojlanish haqida rasmiy manba.)
2. Sh.M.Mirziyoyev "Ijtimoiy taraqqiyot va yoshlar: yuksalish strategiyasi" Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashri (2022).
3. Erikson, E. H. (1968). Identity: Youth and Crisis. New York: W. W. Norton & Company.
4. Kaiser, S. B. (2012). The Social Psychology of Clothing: Symbolic Appearances in Context. New York: Fairchild Books. (Moda va ijtimoiy psixologiya haqidagi ilmiy ish.)
5. Kim, J. (2019). "K-Pop Fashion and Its Impact on Youth Culture." Journal of Popular Culture, 52(3), 643-661. (K-Pop subkulturasini va yoshlar orasidagi moda ta'siri.)
6. Fashion Revolution (2023). Fashion Transparency Index. (Barqaror moda va ekologik masalalar bo'yicha hisobot.)
7. Entwistle, J. (2000). The Fashioned Body: Fashion, Dress and Modern Social Theory. Polity Press. (Moda va ijtimoiy nazariyalar.)
8. Abidin, C. (2016). "Visibility Labour: Engaging with Influencers' Fashion on Instagram." Media International Australia, 161(1), 86-100. (Ijtimoiy tarmoqlardagi influencerlarning modaga ta'siri.)
9. Wilson, E. (2003). Adorned in Dreams: Fashion and Modernity. I.B. Tauris. (Moda va zamonaviylik.)
10. O'zbekiston Yoshlar agentligi (2023). "Yoshlar orasida moda va ijtimoiy tarmoqlarning o'rni bo'yicha so'rovnoma natijalari." (Mahalliy tadqiqotlar manbai.)
11. Raximova Kamola G'ayratovna Baynazarova Lobar Xamdam qizi Boltayeva Marjona Talib kizi "Ijodiy manbadan foydalanib kostyum dizayni loyihasini yaratish texnologiyasi" EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH UIF = 8.1 | SJIF = 7.899 Volume 4, Issue 6, June 2024 ISSN 2181-2020 Page 101-108 <https://doi.org/10.5281/zenodo.11545303>
12. Raximova Kamola G'ayratovna "Issiqni saqlash xossasi yuqori bo'lgan gazlamalardan chaqaloqlar kiyimlariga qo'yiladigan talablarni tahlil qilish" EURASIAN



JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH UIF = 8.1 | SJIF = 7.899 page 115-122
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11545839>

13. Rakhimova Kamola Gayratovna "CREATING A RANGE OF MODERN CLOTHES FOR GIRLS" American Journal Of Applied Science And Technology page 13-18 Volume 04 Issue 07-2024 <https://www.theusajournals.com/index.php/ajast/article/view/3340>

14. Rakhimova Kamola Gayratovna, Baynazarova Lobar Xamdami qizi, "ANALYSIS OF STYLE TYPES OF CLOTHES" American Journal Of Applied Science And Technology page 35-40 Volume 04 Issue 07-2024 <file:///C:/Users/user/Desktop/index.htm>